



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

Loviya Urug‘Larining Himoyasi Va Unuvchanligiga Ekish Chuqurligining Ta’siri

Rahmonov Murodbek

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand
shahari, e-mail: raxmonov_1995@icloud.com

ABSTRACT

So‘nggi yillarda global miqyosida takrorlanayotgan suv tanqisligi hamda oziq-ovqat mahsulotlariga jahon bozorida narx-navoning muttasil oshib borayotgani munosobati bilan shuningdek, respublikamizda oziq-ovqat ekinlari mahsulotlarini yetishtirish hajmini yanada oshirish hamda ularning turlarini ko‘paytirish va shu asosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘liqroq qondirish, natijada mamlakat aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish maqsadida Prezidentimizning (2008 yilda) «Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi.

Kalit so‘z: loviya, urug‘, namlik, unuvchanlik

Loviya (*Phaseolus vulgaris* L.) — dukkaddoshlar oilasiga mansub qimmatli oziqaviy va yem-xashak ekinidir. Uning urug‘lari oqsil, uglevod, vitamin va mineral moddalar bilan boy. Loviya o‘simligi tuproq unumdorligini yaxshilaydi, chunki uning ildizidagi tuganak bakteriyalar atmosferadagi azotni bog‘laydi.

Urug‘ning unuvchanligi — bu urug‘ning ma‘lum sharoitda nihol hosil qilish qobiliyatidir. Unuvchanlikka ko‘plab omillar ta’sir qiladi, ulardan biri ekish chuqurligidir.

Urug‘larining unib chiqish qobiliyati asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, bu jarayon ko‘pgina omillarga bog‘liq ravishda o‘simlikda kechadigan fiziologik jarayonlar, mahsuldorlik va hosildorlikka katta ta’sir etadi. Tuproq namligi bir xil bo‘lgan, ammo ekish chuqurligi har xil bo‘lgan sharoitda loviya navlarining unib chiqish qobiliyatida xilma-xillik kuzatiladi. Tadqiqotlar dala tajribalari tariqasida amalga oshirildi. Ekish chuqurligi loviya urug‘ining nihollab chiqish tezligi, unuvchanlik foizi va o‘simlikning keyingi rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Namlik yetarli bo‘lgan sharoitdagi loviya navlarining unuvchanlik qobiliyati (to‘liq to‘yinishga nisbatdan % hisobida) Tadqiqotlarimiz dala tajribalari tariqasida, takroriy ekin sifatida g‘alladan bo‘shagan maydonlarda olib borildi. Ekish uchun loviyaning saralangan urug‘laridan foydalandik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.

1-jadval Loviya urug‘larining unuvchanligiga ekish chuqurligining ta’siri

| Nav | 1-2 cm | 3-4 cm | 5-6 cm | 7-8 cm | 9-10 cm |
|-----------|--------|--------|--------|--------|---------|
| Ravot | 22,72% | 63,64% | 81,82% | 68,19% | 18,20% |
| Mahsuldor | 18,20% | 68,55 | 86,36% | 59,19% | 22,73% |

Tadqiqotlarimiz natijasida jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ekish chuqurligi 1-2 sm bo‘lganda, loviya urug‘larining unib chiqishi qobilyati eng past foizlarda ya’ni Ravot-22,72 %, Mahsuldor-18.2 %, ni tashkil qildi. Urug‘larning unuvchanlik natijalarining past bo‘lishiga sabab, urug‘larning unub chiqishi uchun yetarli namlikning bo‘lmaganligidadir. Ekish chuqurligi 3-4 cm bo‘lganda esa Ravot navida 63.64 %,Mahsuldor navida 68.64 %,ni tashkil qildi.

Eng maksimal ko‘rsatkich esa ekish chuqurligi 5-6 cm holatida aniqlandi, bunda olingan natijalar Ravot navida 81.82 %, Mahsuldor navida 86.36 %, ekanligi qayd etilgan. Bunga sabab, urug‘larning unuvchanligiga namlikning hamda boshqa omillarning normal holatida bo‘lishidir. Jadvalda keltirilganidek, ekish chuqurligi 7-8 cm bo‘lganda Ravot navida 68.19 %, Mahsuldor navida 59.19 % urug‘larning unuvchanligi aniqlandi. Natijalarning nisbatan biroz pasayganligi kuzatish mumkin. Ekish chuqurligi 9-10 sm bo‘lganda Ravot navida 18.2 %, Mahsuldor navida 22.73 % urug‘larning unuvchanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aliboyev A., Yusupov X. Sug‘oriladigan yerlarda qishloq xo‘jalik ekinlarini takroriy ekish. // Ilmiy to‘plam. 1993. – B.8-11
2. Alimova R.A. Qishloq xo‘jalik o‘simliklari biokimyosi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: ToshDAU, 2000. – 90-95 b.
3. Abdullaev R.A., Asomov D.K., Beknazarov B.O., Safarov K.S. O‘simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg‘ulotlar.- Toshkent: Universitet, 2003.- 190-195 b.
4. Алланазарова У., Рахимова Т., Вахидов Ю.С.Қизилқум яйловларида чўлланиш // Развитие ботанической науки в Центральной Азии и её интеграция в производство. Материалы международной научной конференции. – Ташкент, 2004. – С. 102-106.
5. А.М.Тоҗиев, Н.Т.Намозов, М.Н.Нафетдинов. О‘zbekiston tuprog‘i. 2004-y
6. Belolipov I.V. “Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi”, Toshkent. 2018, 180-192 bet
7. Боднер Г.В., Лавриненко Г.Т. Зернобобовые культуры. – М.: Колос, 1977. – 245-246 с.
8. Bo‘riev X.Ch., Sagdiev M.T., Alimova R.A., yenileev N.Sh. Sabzavot- poliz ekinlari fiziologiyasi va biokimyosi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Navro‘z, 2015. - 179 b.
9. Быстрицкая Т.Л., Осичных В.В. Почвы и первичная биологическая продуктивность Приазовских степей. М.: Наука, 1975. – 111 с.
10. Bo‘riyev Ya., Xalikov B., Almashlab ekishning qisqa rotatsiyali tizimlarida tuproq unumdorligi va g‘o‘za hosildorligi. // Fermer xo‘jaliklarida paxtachilik va g‘allachilikni rivojlantirishning ilmiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. – Toshkent, O‘z PITI. 2006. – B.51-52.